

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

## YER MONITORINGI VA KADASTRINING O'ZARO BOG'LQLIGI, SUG'ORILADIGAN YER XUSUSIYATLARI TAHLILI.

*Hamidov Firuz Fayzulloyevich*

*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti.*

[firuzhamidov11@gmail.com](mailto:firuzhamidov11@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada yerda kuzatishlarni tashkil etish, yerlarning holati va ulardan foydalanishdagi o'rganilayotgan jarayonlarning tendentsiyalarini aniqlash, tahlil qilish va ularni baholash, salbiy jarayonlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha takliflarni ilgari surib kerakli tavsiyalar berish.

**Kalit so'zlar:** monitoring, tendentsiya, kadastr, resurs, ob'yekt, sikl, operativ, massiv.

**Аннотация:** В статье организация наблюдений на местности, за землей. состояния и изучаемые процессы в их использовании выявлять тенденции, анализировать и оценивать их, негативные выдвигать предложения по предотвращению и ликвидации процессов и давать необходимые рекомендации.

**Ключевые слова:** мониторинг, тренд, кадастр, ресурс, объект, цикл, оперативный, массив.

**Abstract:** In the article, organization of observations on the ground, of the earth state and studied processes in their use identify trends, analyze and evaluate them, negative to put forward proposals for prevention and elimination of processes and give necessary recommendations.

**Key words:** monitoring, trend, cadastre, resource, object, cycle, operational, array.

Yerdan foydalanish vazirlik va idoralarning, shuningdek, tegishli maqsadli foydalanish uchun yer berilgan yuridik va jismoniy shaxslarning vakolati hisoblanadi. Yerdan foydalanishni boshqarishda yer monitoringining o'rni va uning barcha boshqaruv funksiyalari bilan bog'lqligi haqida yuqorida ta'kidlab o'tildi. Yer monitoringi yer kadastri bilan uzviy bog'liqdir. Bu xususiyat bir qator omillar bilan izohlanadi:

- umumiy o'rganish ob'ekti;
- umumiy maqsad – yer resurslari tarkibi va foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni ishlab chiqish;
- yer resurslarining holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni ishlab chiqish uslublari va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha umumiy vazifalar (har bir faoliyatda ayrim xususiyatlar bilan);
- o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida ishlab chiqilayotgan ma'lumotlarning amalda keng tarqalgan turlari;
- axborotni ishlab chiqishning umumiy usullari;
- bir-birining ma'lumotlarini to'ldirish va ulardan foydalanish imkoniyatlari;
- umumiy maqsad – yerdan foydalanish va yer resurslari to'g'risidagi ma'lumotlardan boshqa manfaatdor foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash (har bir tadbirda ba'zi xususiyatlar bilan);

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

- yagona yer axborot tizimi<sup>1</sup>.

Buxoro tumani hududida uchuvchisiz uchish apparati (dron) yordamida olingen suratlardan foydalanib sug‘oriladigan yerlarni monitoringi. Yer monitoringi, yer tarkibidagi o‘zgarishlar, ya’ni yerdan maqsadli foydalanish, tuproq unumдорligi, sho‘rlanganligi, eroziyaga uchraganligi, botqoqlanganligi, ifloslanganligi, ortiqcha namlangani yoki qurib qolganligi, o‘zboshimchalik bilan egallab olingani, tabiatni muhofaza etish talablarini bajarmaganligini kuzatib borish hisoblanadi 1-rasmga qarang.



*1-rasm. Buxoro tumani hududida uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida olingen suratlardan foydalanib sug‘oriladigan yerlarni monitoringi.*

Yer kadastrini ham, yer monitoringini ham o‘rganish ob’ekti yer uchastkalari, ularga bo‘lgan huquq turlaridan va idoraviy mansubligidan qat’iy nazar, shuningdek, shahar va tumanlar, viloyatlar va respublika hududi hisoblanadi. Bu boradagi kichik tafovutlar qatoriga yer kadastrining har bir siklini yuritish har doim respublika miqyosida yakunlanishi, yer monitoringi faqat operativ o‘rganish massivlarida amalga oshirilishi, bunday massivlar asosan mahalliy va mintaqaviy darajalarga ega bo‘lishi, kamroq hollarda respublika darajasida bo‘lishi lozim.

Yerning yagona o‘ziga xos jihat shundaki, yer kadastri davriy ravishda amalga oshiriladi (sug‘oriladigan zonada, lalmi va yaylov zonalarida, shahar va aholi punktlarida muddat har xil bo‘ladi) va yer monitoringi zarurat tug‘ilganda istalgan vaqtida amalga oshiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad ba’zi

kutilmagan holatlar (sabablar) tufayli yerning tarkibi va foydalanishida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni zudlik bilan aniqlash. Yer kadastri va yer monitoringi vazifalarining umumiyligi yer resurslaridan foydalanish holati va dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqilayotgan ma’lumotlarning muddatlarini qisqartirish va ishonchlilagini oshirish, tannarxini pasaytirish usullari va texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Yer kadastri va yer monitoringida ishlab chiqiladigan ma’lumotlar turlarining umumiyligi yagona o‘rganish ob’ekti, yerning holati va foydalanish tavsifining amalda bir xil xususiyatlari bilan izohlanadi. Bu yer ma’lumotlarining barcha turlariga taalluqlidir.

Yer monitoringi ma’lumotlari yerning holati va ishlatilishini dinamikasida, ya’ni kuzatuvning ma’lum davri mobaynida tavsiflaydi. Yer monitoringi axborotining turlari ro‘yxatga olish,

<sup>1</sup> Chertovitskiy A.S., Narbayev Sh.K., Axmadaliyev V.A., “O‘quv qo‘llanma”, T.- 2023.- 154 b.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON,2024

hisobga olish va baholash ma'lumotlarini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, muayyan ob'yektni monitoring qilishda axborotni ishlab chiqish uning turlaridan biri bo'yicha alohida yoki ikkita turi bo'yicha yoki barchasi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Bir vaqtning o'zida, bu tadqiqot vazifasiga bog'liq.

Tadqiqotlar davomida ma'lum bo'ldiki, yer monitoringini yuritishda asosan qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan, lekin holati buzilgan yer maydonlarini aniqlash, ularni tiklash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni tadbiq etish hisoblanadi.

## Adabiyotlar ro'yxati.

1. Chertovitskiy A.S., Narbayev SH.K., Axmadaliyev V.A., "O'quv qo'llanma", T.- 2023.- 170 b.
2. Hamidov F.F. Innovation texnologiyalarni qo'llash orqali sug'oriladigan yerlarni monitoring qilish tahlili. JOURNAL OF IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI – volume 10, issue 2, 2024, <http://worldlyjournals.com/index.php> IFX/article/view/4749
3. F.R.Khamidov, SH.B.Adizov, F.F.Khamidov, M.Sh.Ochilova. Socio-economic aspects of land use in farming. Журнал: Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения. Выпуск №1 (2022). 06.02.2023., 141-157. <https://inlibrary.uz/index.php/land-reform/article/view/> 16756
4. Hamidov F.F. Sug'oriladigan yerlarda yer monitoringini yuritishda xorijiy davlatlar tajribalarini o'rghanish. Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi" milliy ilmiy jurnali. 20.03.2023 yil. 3-son. 49-53. <https://in-academy.uz/> index.php/yopa/article/view/11324
5. Hamidov F.F. While land monitoring in irrigated lands studying the experiences of foreign countries. "International scientific research conference" Belarus, International scientific-online conference. марта 2023, 100-104. <https://interonconf.org/index.php/brs/article/view/2848>
6. Хамидов Ф.Ф. Изучение опыта зарубежных стран орошения земель и мониторинга земель. Международный современный научно-практический журнал «Научный Фокус». Москва, октябрь 2023 №6-(100) Часть-1, 87-92.
7. Hamidov F.F., Egamova D.A. Sug'oriladigan yerlarni yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish natijalari bo'yicha yer monitoringi ma'lumotlarini shakllantirish. Innovative developments and research in education. CANADA International scientific-online conference, 23.06.2024 (Part-30), 205-209.
8. Hamidov F.F., Egamova D.A. Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari. Innovation in the modern education system. USA International scientific-online conference, 25.06.2024 (Part-42), 155-161.